

“TASDIQLANGAN”

“Mikrokreditbank”
aksiyadorlik-tijorat banki
Aksiyadorlarining navbatdagi yillik
umumiy yig‘ilishining
2025-yil “27” iyun dagi
4-sonli bayonhomasi bilan

Yig‘ilish raisi



_____ B. Radjabov

**“Mikrokreditbank” aksiyadorlik-tijorat bankining
“Kuzatuv kengashi a’zolariga haq va kompensatsiyalar
to‘lash tartibi to‘g‘risida”gi**

Nizom
(yangi tahrirda)


“MA’QULLANGAN”

“Mikrokreditbank” aksiyadorlik-tijorat banki
Kuzatuv kengashi majlisining
2025-yil “25” iyun dagi 11-sonli bayonnomasi bilan
Kuzatuv kengashi raisi



_____ B. Zaxidov

Boshqaruvining
2025-yil “25” iyun dagi 11-sonli qarori bilan
Boshqaruv raisi v.b



_____ O. Butayev

Toshkent – 2025-yil

1-bob. Umumiy qoidalar

1. "Mikrokreditbank" aksiyadorlik-tijorat bankining "Kuzatuv kengashi a'zolariga haq va kompensatsiyalar to'lash tartibi to'g'risida"gi Nizom (keyingi o'rinlarda – Nizom) "Aksiyadorlik jamiyatlari va aksiyadorlarning huquqlarini himoya qilish to'g'risida"gi, "Banklar va bank faoliyati to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasining qonunlari, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 29-martdagi 166-son "2021-2025-yillarda davlat ishtirokidagi korxonalarni boshqarish va isloh qilish strategiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi qarori va boshqa normativ-huquqiy hujjatlarga, "Mikrokreditbank" aksiyadorlik-tijorat banki (keyingi o'rinlarda – Bank) Ustavi, "Kuzatuv kengashi to'g'risida"gi Nizomi va boshqa ichki qoidalariga muvofiq ishlab chiqilgan.

2. Mazkur Nizom Bank Kuzatuv kengashi a'zolariga ular o'z vazifalarini bajarib turgan davr uchun haq to'lash va o'z vazifalarini bajarish bilan bog'liq xarajatlarining o'rnini qoplash uchun kompensatsiya qilish, Kuzatuv kengashi a'zolari fuqarolik javobgarligini sug'urtalash tartibi, shuningdek to'lanadigan haq va kompensatsiyalarning miqdorini belgilaydi.

3. Kuzatuv kengashi a'zolariga to'lanadigan haq va kompensatsiyalar ularning shaxsiy bank hisobvarag'iga (bank kartasiga) pul mablag'larini o'tkazish orqali milliy valyuta so'mda Bankning joriy xarajatlari hisobidan amalga oshiriladi.

Kuzatuv kengashining mustaqil a'zolariga to'lanadigan haq xorijiy valyuta ekvivalentida belgilanadi, agar Kuzatuv kengashi a'zolari xarajatlarni xorijiy valyutada amalga oshirgan bo'lsa, haq va kompensatsiyalar milliy valyuta so'mda to'lov amalga oshiriladigan sanadagi O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki tomonidan belgilangan kurs bo'yicha to'lanadi.

4. Mazkur Nizomga muvofiq to'lanadigan haq va kompensatsiyalar, sug'urta xarajatlari miqdori Bankning yillik biznes-rejasida (budjetida) aks ettiriladi.

5. Mazkur Nizomga muvofiq amalga oshiriladigan to'lovlar miqdori jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'ini hisobga olmaydi va to'lovlar to'liq amalga oshiriladi. To'lovlar hisoblanishida ularning miqdoriga qonunchilikka muvofiq soliqlar hisoblab chiqiladi va Bank soliq agenti sifatida soliq to'lovlarini amalga oshiradi.

6. Mazkur Nizomga muvofiq haq va kompensatsiyalar to'lash uchun hisob-kitob davri kalendar yil hisoblanadi.

Kuzatuv kengashining mustaqil a'zolariga haq ularning kalendar yil davomida amalda bo'lgan Kuzatuv kengashi a'zoligi davri uchun kalendar kunlari hisobida mutanosib ravishda amalga oshiriladi.

Kuzatuv kengashi a'zoligiga saylangan, lekin nomzodi lavozimga kirishishdan oldin qonunchilikka muvofiq O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki bilan kelishish talab etiladigan Kuzatuv kengashining mustaqil a'zolariga haq va kompensatsiyalar to'lanishi ularning nomzodi bo'yicha O'zbekiston Respublikasi Markaziy bankining rozilik xati Bankka kelib tushib, ular bilan shartnoma tuzilgan kundan boshlanadi.

Kuzatuv kengashi a'zolariga to'lanadigan haq va kompensatsiyalarni hisob-kitob qilish uchun ma'lumotni o'z vaqtida taqdim qilinishi uchun javobgarlik Bank Kuzatuv kengashi kotibiyatiga yuklatiladi.



Kuzatuv kengashi a'zolariga haq va kompensatsiyalarni to'g'ri hisob-kitob qilish va to'lash uchun javobgarlik Bank Bosh ofisi xodimlariga ish haqi hisoblash va to'lashni amalga oshiruvchi Bankning tegishli tarkibiy bo'linmasi va unga bevosita rahbarlik qiluvchi Boshqaruv a'zosiga yuklatiladi.

7. Kuzatuv kengashi a'zosi yozma arizasi bilan unga mazkur Nizomga muvofiq to'lanishi lozim bo'lgan haq va kompensatsiyalaridan to'liq yoki qisman voz kechishi yohud ularni xayriya maqsadlariga yo'naltirishi mumkin.

8. Kuzatuv kengashi a'zolari mazkur Nizomda belgilangan hollardan tashqari o'z vakolatlarini amalga oshirganligi uchun boshqa haq va (yoki) kompensatsiyalarni olishga haqli emas, bundan Bank Aksiyadorlarining umumiy yig'ilishi qarori bilan to'landigan haq va (yoki) kompensatsiyalar mustasno.

Bunda, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi bilan kelishilgan holda Aksiyadorlarning umumiy yig'ilishi qaroriga asosan davlat xizmatchisi, davlat ishtirokidagi korxonalar va tijorat banklari vakillari hisoblanmagan hamda Kuzatuv kengashining davlat ulushi bo'yicha tayinlangan va Kuzatuv kengashining mustaqil bo'lmagan a'zolari uchun ushbu Nizom 10 va 11-bandlari bilan Kuzatuv kengashining mustaqil a'zolariga belgilangan miqdor doirasida haq tayinlanishiga ruxsat etiladi.

2-bob. Kuzatuv kengashining mustaqil a'zolariga haq to'lash

9. Kuzatuv kengashining mustaqil a'zolariga o'z vazifalarini bajarganligi uchun haq mazkur Nizomning ularga tegishli qoidalarini inobatga olgan holda Kuzatuv kengashining mustaqil a'zolari bilan tuzilgan shartnomalarda belgilangan tartib va miqdorda to'lanadi.

10. Kuzatuv kengashining har bir mustaqil a'zosiga kalendar yil uchun to'lanadigan haqning eng ko'p miqdori quyidagicha belgilanadi:

Bank aktivlarining qiymati 50 trln so'mdan ortiq bo'lsa, yillik 60 ming AQSh dollari ekvivalentidan oshmagan miqdorda;

Bank aktivlarining qiymati 20 trln so'mdan 50 trln so'mgacha bo'lsa, yillik 50 ming AQSh dollari ekvivalentidan oshmagan miqdorda;

Bank aktivlarining qiymati 20 trln so'mgacha bo'lsa, yillik 40 ming AQSh dollari ekvivalentidan oshmagan miqdorda.

11. Kuzatuv kengashining har bir mustaqil a'zosiga mazkur Nizom 10-bandiga muvofiq Kuzatuv kengashining mustaqil a'zoli uchun yillik to'lanadigan haqning 20 foizidan ko'p bo'lmagan miqdorda Kuzatuv kengash raisligi, 10 foizidan ko'p bo'lmagan miqdorda Kuzatuv kengashi qoshidagi har bir qo'mita raisligi yoki a'zoli uchun qo'shimcha haq to'lanishi mumkin.

3-bob. Kuzatuv kengashi a'zolari xarajatlarini kompensatsiya qilish

12. Kuzatuv kengashi a'zolariga o'z vazifalarini bajarish, jumladan yashash joyidan tashqarida bo'lgan aksiyadorlarning umumiy yig'ilishlarida hamda Kuzatuv kengashi va uning qo'mitalari yig'ilishlarida (majlislarida), shuningdek Bank, aksiyadorlar va Kuzatuv kengashi raisi tomonidan tashabbus qilingan yig'ilish, forum, konferensiya, taqdimot va boshqa tadbirlarda ishtiroki bilan bog'liq xarajatlar o'rnini qoplash uchun Bank tomonidan mazkur Nizomda belgilangan qoidalarga muvofiq va Kuzatuv kengashining mustaqil a'zolari bilan tuzilgan shartnomalarda belgilangan tartib va miqdorda kompensatsiya qilinadi.

13. Kuzatuv kengashi a'zolari xarajatlari o'rnini qoplash uchun kompensatsiyalarning eng ko'p miqdori quyidagicha belgilanadi:

belgilangan joyga borish va doimiy ish yoki yashash joyiga qaytish uchun transport xarajatlariga (transportda yo'lovchilarni majburiy shaxsiy sug'urtalash uchun sug'urta polisi, yo'l hujjatlarini rasmiylashtirish bo'yicha xizmatlar to'lovi va h.k.):

havo transporti bo'yicha tejamli-klass tarifi miqdorida, agar uch soatdan ko'proq uchish sharoiti bo'lsa biznes-klass tarifi miqdorida;

temir yo'l transporti bo'yicha biznes-klass vagoni tarifi miqdorida;

avtomobil transporti bo'yicha yig'ilish va tadbirlar o'tkaziladigan aholi yashaydigan punktdagi transfer yoki bunday aholi yashaydigan punktga eng yaqin aeroport (temir yo'l vokzali), yig'ilish va tadbirlar o'tkaziladigan joygacha mehmonxona va qaytish yo'l xarajatlari haqiqiy miqdorida;

yig'ilish va tadbirlar o'tkaziladigan davrda, shu jumladan Kuzatuv kengashi a'zosining kelish/ketish kunlari davomida yashash uchun (turar joyni ijarasi bo'yicha) xarajatlariga 5 (besh) yulduzli mehmonxonaning "standart" klassidan yuqori bo'lmagan turar-joyni ijaraga olish bo'yicha xarajatlar miqdorida (bunda, Kuzatuv kengashi a'zosi iltimosiga asosan Bank mehmonxonada turar-joyni oldindan band qilib qo'yishga va Bank mablag'lari hisobidan ijara haqini to'lashga haqli);

yig'ilish va tadbirlar davomida vakillik xarajatlariga (nonushta, tushlik, kechki ovqat, transport ta'minoti, muzokaralar vaqtida bufet xizmatlarini ko'rsatish, tashkilot shtatida bo'lmagan tarjimon xizmatiga haq to'lash bilan bog'liq bo'lgan xarajatlarga) ularning haqiqiy miqdorida (bunda, Bank o'z mablag'lari hisobidan vakillik xarajatlarini kompensatsiya qilmasdan amalga oshirishga haqli);

sutkalik xarajatlariga Bankning ichki hujjatlariga (qoidalariga) muvofiq Bank Boshqaruvi uchun belgilangan eng yuqori miqdorda (bunda, Bankning ichki hujjatlariga (qoidalariga) muvofiq sutkalik xarajatlarni amalga oshirish talablari inobatga olinadi).

14. Kuzatuv kengashi a'zolari sarflangan xarajatlar kompensatsiyasini olish uchun Bank Kuzatuv kengashi kotibiyatiga haqiqiy xarajatlarni tasdiqlovchi hujjatlarning asl nusxasini (bilet/elektron bilet, chiqish taloni, mehmonxonada yashash uchun hisobvaraq va h.k.) ilova qilgan holda ariza yuboradi.

15. Bank Kuzatuv kengashi kotibiyati mazkur Nizom 14-bandida ko'rsatilgan hujjatlar olingan kundan e'tiboran 5 (besh) ish kunidan kechiktirmay sarflangan xarajatlarni kompensatsiya qilish to'g'risida bildirishnomani olingan hujjatlarni ilova qilgan holda mazkur Nizom 6-bandida belgilangan Bank Boshqaruvi a'zosiga yuboradi.

16. Bank tomonidan kompensatsiyalar to'lovi Kuzatuv kengashi kotibiyatidan tegishli hujjatlar olingan sanadan e'tiboran 10 (o'n) ish kunidan kechiktirmay amalga oshiriladi.

17. Kuzatuv kengashining a'zolariga kompensatsiyalar to'lash mazkur Nizom va Aksiyadorlarning umumiy yig'ilishi qarori bilan belgilangan tartibga muvofiq amalga oshiriladi. Bunda, Kuzatuv kengashi a'zolari kompensatsiya qilinadigan xarajatlarni oqilona va tejamkor amalga oshirishlari lozim.

4-bob. Kuzatuv kengashi a'zolari fuqarolik javobgarligini sug'urtalash

18. Bank o'z mablag'lari hisobidan Kuzatuv kengashi a'zolari fuqarolik javobgarligini sug'urtalashi mumkin.

19. Sug'urta hodisalari ro'yxati, sug'urta summasi miqdori, zararni qoplash tartibi va boshqa muhim shartlar Bank va sug'urtalovchi o'rtasida tuzilgan sug'urta shartnomasiga muvofiq belgilanadi.

20. Qonunchilik talablari doirasida Kuzatuv kengashi a'zolari fuqarolik javobgarligini sug'urtalash to'g'risida qaror qabul qilish, sug'urta limitlarini va sug'urtalovchini belgilashni tashkil etish Kuzatuv kengashi tomonidan amalga oshiriladi.

5-bob. Axborotni oshkor qilish

21. Bank Kuzatuv kengashi a'zolariga to'langan haq to'g'risidagi axborotni qonunchilikka muvofiq oshkor qilinishini ta'minlaydi.

6-bob. Yakuniy qoidalar

22. Mazkur Nizom Bank Aksiyadorlarining umumiy yig'ilishi qarori bilan tasdiqlanib, o'rnatilgan tartibda ro'yxatga olingan kundan e'tiboran kuchga kiradi.

23. Mazkur Nizomga o'zgartirish va qo'shimchalar Bank Aksiyadorlarining umumiy yig'ilishi qarori bilan kiritiladi.


24. Mazkur Nizom kuchga kirgan kundan boshlab Bank Aksiyadorlarining navbatdan tashqari umumiy yig'ilishining 2022-yil 30-martdagi 3-sonli bayonnomasi bilan tasdiqlangan Bankning "Kuzatuv kengashi a'zolariga haq va kompensatsiyalar to'lash tartibi to'g'risida"gi Nizom va unga kiritilgan o'zgartirish va qo'shimchalar o'z kuchini yo'qotadi.

25. Ushbu Nizom talablarini buzgan shaxslar qonunchilikka muvofiq javobgarlikka tortiladilar.

26. Mazkur Nizomda nazarda tutilmagan qoidalar amaldagi qonunchilik bilan tartibga solinadi.

27. O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchilik hujjatlariga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritilgan taqdirda, mazkur Nizomga tegishli o'zgartirish va qo'shimchalar kiritilgunga qadar amaldagi qonunchilik talablariga rioya etiladi.

28. Kuzatuv kengashi a'zolari va Bank mazkur Nizomning ijrosi bilan bog'lik yuzaga keladigan nizolar yoki e'tirozlarni muzokaralar orqali qisqa muddatlarda hal qilish maqsadida imkon darajada barcha choralarni ko'rish majburiyatini oladilar. Kuzatuv kengashi a'zosi va Bank o'rtasida o'zaro kelishuv asosida hal qilinmagan mazkur Nizomga tegishli har qanday nizo qonunchilikda belgilangan tartibda ko'rib chiqiladi.



[Handwritten signatures]